

O‘ZBEKISTON FOND BOZORIGA MAHALLIY VA XORIJIY INVESTORLARNI JALB QILISHDA ASOSIY MUAMMOLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403338>

Xusanboyev Axmadjon Akbar o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston fond bozoriga mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilishda asosiy muammolar, fond bozori va uni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili, fond bozoriga ta’sir etuvchi omillarni samarali boshqarishning amaldagi holati tahlili, fond bozorini rivojlantirish zaruriyati va afzalliklari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** fond bozori, aksiyalar bozori, IPO, SPO, aksiya, obligatsiya, QQB, ikkalamchi bozor*

Afsuski, respublikamizda hozircha hamma aksiyadorlik kompaniyalar ham o‘zlarining aksiyalari fond bozorida baholanishiga intilaverishmaydi. Doimo jamiyatning nazarida bo‘lish juda qiyin, bunday vaziyat korxonaning moliyaviy ahvolini yuqori darajada ushlab turishni taqozo etadi. Boshqa tomondan, aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlarining katta qismi rivojlanishining jiddiy dasturlariga ega emas, ular bugungi kun bilan yashamoqda va xatolikka yo‘l qo‘yilgan hollarda kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qayta jihozlash loyihalarida ishtirok etishga jur‘at etishmaydi. Tabiiyki, bunday korxonalar o‘z aksiyalarini ularning fond birjasida doimiy ravishda baholanishi shaklida qo‘shimcha reklama qilishdan manfaatdor emas.

Undan tashqari O‘zbekiston moliya bozori ayniqsa fond bozorida mavjud kamchiliklarni qisqa tarzda qayd etish zarur:

1. Fond bozori va aksiyadorlik jamiyatlariga davlat ulushining hamda aralashuvining yuqoriligi.

2. Fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishda aksiyadorlik jamiyatlarining emissiya qilish tartibi murakkabligi. (IPO, aksiya, obligatsiyalar)

3. Aholi va menejerlarning fond bozori borasidagi moliyaviy savodxonligining nisbatan pastligi hamda korxonalarning fond bozoriga nisbatan kredit bozorini afzal ko‘rishi.

4. Aksiyadorlik jamiyatlarining “Toshkent” RFB listingiga kirish

jarayonining murakkabligi, xususan faoliyat yuritayotgan 614 ta aksiyadorlik jamiyatlarining atigi 30 foizi listinga kirgan hamda birja savdolarida qatnoshmoqda.

5. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorlik darajasining pastligi, xattoki birja xarajatlarini ham qoplay olmasligi. (Masalan, uzoq xududlardan kelib ketishi, RFB ga badallik to'lovlari, aksiyalarni ro'yxatga olish va veb saytga ma'lumotlar joylashtirish)

6. Fond bozori ishtirokchilari uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari xarajatlarining yuqoriligi va ularni markazlashgan tartibda tekin tashkil etilmaganligi.

7. Amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyalar ulushining 15 foizini xorijiy investorlarga sotilishi natijasida aksiya narxlarning sun'iy ravishda oshishi.

8. Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati turli xil tashkilotlar tomonidan tomonidan nazorat qilinishi va ularning yaxlit usulda nazorat qilish muvofiqlashtirilmaganligi.

9. Fond bozori orqali investitsiyalarni moliyalashtirishda MChJlarni jalb qilishni rag'batlantirish.

10. Milliy fond bozorini va aksiyadorlik jamiyatlarini xalqaro fond bozorlarga integratsiyalashuvini ta'minlash.

Bugungi kunda asosiy e'tiborni aholi va muassasaviy sarmoyadorlarni aksiyalari sotuvga qo'yiladigan aksiyadorlik jamiyatlari, ular joriy faoliyatining natijalari va rivojlanish istiqbollari haqidagi axborotga ega bo'lishiga qaratish lozim.

Fikrimizcha, anderrayting va diler operatsiyalarini amalga oshiruvchi investitsion kompaniyalarni yaratish va ularni faoliyatini faollashtirishga alohida ahamiyat berish lozim. Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni ko'p jihatdan fond bozorini rivojlanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Kollektiv investorlar faolligini oshirish, ular harakatining samarali mexanizmlarini ishga solmasdan turib ikkilamchi bozorni shakllantirish mumkin emas. Bu o'z, navbatida, fond bozorida investitsiya vositachilari faoliyati bilan uzviy

bogʻliqdir. Respublikamizda kollektiv investorlar faoliyatining huquqiy asoslari va ular faoliyatining kafolatlari yaratilgan boʻlsada, bu sohada bir qator muammolar mavjud.

Fond birjasidagi amalga oshirilayotgan bitimlar sonining koʻpligi mamlakat iqtisodiy holati bilan bogʻliq, shundan kelib chiqqan holda, qimmatli qogʻozlarni birlamchi bozori tashqari ikkilamchi bozorini rivojlantirish va undagi kollektiv investorlar rolini oshirish zarur. Fikrimizcha, fond bozorini yaxshi rivojlangan mexanizm sifatida shakllantirish va mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirish va kollektiv investorlar faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida ularga foyda soligʻi boʻyicha imtiyozlar berish va soliq yukini kamaytirish zarurdir.

Kollektiv investorlarning rivojlanishi respublikamiz qimmatli qogʻozlar bozori uchun bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Quyida bu institutlarning fond bozori uchun afzallik tomonlarini va mavjud muammolarni koʻrib chiqamiz:

1. Portfel diversifikatsiyasi evaziga investitsiya riskini pasaytirish uslubiyotining qoʻllanilmasligi.

Kollektiv investorlar faoliyatining jahon tajribasida investorlar iqtisodiyotning turli xil tarmoq korxonalariga aksiyalariga egalik qilib, investitsiya riskini pasaytirishadi. Oʻzbekistonda qoʻyilmalarni diversifikatsiyalashning mushkul tomoni shundaki, umuman olganda aksiyalar bozori nolikvid hisoblanadi, yaʼni aksiyalarga ommaviy talab va taklifning yoʻqligi.

Kollektiv investorlar oʻz faoliyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni, yaʼni sof aktivlar qiymati, umumiy aktivlar, aktivlar tuzilmasi, investitsiya portfeli hajmi kabi maʼlumotlarni ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilib turishi lozim. Bu maʼlumotlar aksiyadorlar, paychilari uchun foydasining miqdori, investitsiya qiymati, qoʻshimcha paylarni sotib olish yoki fond tarkibidan qanday qilib chiqish kabi imkoniyatlarni beradi. Lekin, shuni aytish kerakki, hozirgi fond bozorimizda maʼlumotlarning yetarli darajada shaffof emasligi kerak boʻlsa, kollektiv investorlar faoliyati uchun ham, bozorning boshqa ishtirokchilari uchun ham katta muammo tugʻdirayapti.

Har qanday mamlakatda fond bozorining toʻlaqonli va normal holatda faoliyat

yuritishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy shart sharoitlardan biri, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu bozorning barcha ishtirokchilari va qimmatli qog'ozlar emitentlari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etadigan shaffoflik darajasini ta'minlash hisoblanadi.

Agar emitent korxonalarining moliyaviy holati va salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar yopiq bo'lsa, investorlar o'z mablag'larini investitsiyalash uchun qarorlarni qabul qilishi qiyin, ya'ni kompaniyalarda axborot yopiqligi ularning investitsion jozibadorligini pasaytiradi.

Bugungi kunda o'zbek emitentlari to'g'risidagi ma'lumotlarning yetarli darajada ochiq emasligi milliy fond bozorining kapitalizatsiya darajasining pastligiga sabab bo'layotgan asosiy omillardandir.

Ushbu muammoni bartaraf etishning bir yo'nalishi bu qimmatli qog'ozlarni emissiya prospektida ma'lumotlar to'laqonligini va haqqoniyligini ta'minlashdir.

Shu maqsadda Respublikamizdagi qonunchilik ham emitentlarning prospektini korxonalar rahbari va bosh hisobchi imzolarini talab etadi. Boshqa ayrim davlatlarda ushbu prospekt emitent auditori yoki moliya maslahatchisi tomonidan ham imzolanadi. Ushbu imzolagan shaxslar ma'lumotning haqqoniyligiga javob beradi. Lekin, qimmatli qog'ozlar emissiya prospektidagi ma'lumotlarda emitentning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida axborotlar ochib berilsada, u hujjatdagi ma'lumotlar faqat davlat ro'yxatidan o'tishdagi davrni o'z ichiga oladi. Investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish davriga kelib esa, bu ma'lumotlar ancha eskirgan bo'ladi.

Shuning uchun, Respublikamizda fond bozorini muvofiqlashtiruvchi organlarning bosh vazifasi ham investorlarni emitentning moliyaviy faoliyati to'g'risidagi tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlab turish bo'lishi lozim. Fond bozori rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra emitentlar har chorakda emissiya prospekti bilan o'xshash bo'lgan moliyaviy hisobotlarni topshirish orqali bozor shaffofligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi qonun, 30-modda. <https://lex.uz/acts/-4590452>

2. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. Elmirzayev. Zamonaviy korporativ boshqaruv. // Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.
4. Элмирзаев С.Э., Боев Б.Ж. Акцияларни оммавий жойлаштириш операцияларини ташкил этиш ва ўтказиш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2018 йил. – Б.8; <http://interfinance.uz/en/arxiv/238-ikkiz20182307>
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023 yil 1 dekabrda byulleteni.
6. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 222 b.
7. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
8. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
9. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education, 3 (5), 1646-1654.
10. Turayevich J. I. Akmal o‘g‘li, SM (2023) //INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASINING O‘RNI. PEDAGOGS jurnali. – T. 35. – №. 4. – С. 147-157.
11. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023